

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMLI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITITI**

**TABIATSHUNOSLIK VA GEOGRAFIYA FAKUL`TETI
“EKOLOGIYA VA BOTANIKA” KAFEDRASI**

Qo`lyozma huquqida

Xoliqova Shoir

**PAXTAOBOD TUMANIDAN OQIB O`TUVCHI SUV TARMOQLARI
EKOLOGIYASI VA ULARGA INSON FAOLIYATINI TA`SIRI**

**5850200 – Ekologiya ta`lim yo`nalishi bo`yicha
Bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ilmiy rahbar:

**Xafizov I. Ekologiya va botanika
Kafedrasi katta o`qituvchisi, b.f.n.**

Andijon-2013

MUNDARIJA

Kirish	3-11
a. Mavzuning ahamiyati	9-10
b. Mavzuga oid adabiyotlar taxlili	10-11
I.bob. Markaziy Osiyo va O'zbekistonning suv resurslari	12 - 33
1.1. Paxtaobod tumanining tabiiy, iqtisodiy va geografik o'rni	18-19
1.2. Paxtaobod tumanidan oqib o'tuvchi suv tarmoqlari va tuman xalq xo'jaligidagi ahamiyati...	19-33
II.bob. Suv havzalari va tarmoqlarini muhofaza qilishning ekologik va huquqiy asoslari	34-37
2.1. Suv resurslarini muhofaza qilish tadbirlari	38-49
Xulosa	50
Foydalanilgan adabiyotlar	51

K I R I S H

«Mintaqaning yana bir muammosi suvi muhofaza qilish va tejash tadbirlari majmuii amalga oshirish zaruriyati bilan bog'liqdir. Bu tadbirlar suvning isrof bo'lishini eng kam darajaga keltirishni... o 'z ichiga oladi».

Islom Karimov

Butun dunyoda jamiyatning rivojlanib borishi bilan insonlarning atrof-muhitga bo'lgan ta'siri o'zgarib boradi. Rivojlanish barcha jabhalarda tezlashib borar ekan, Biosferadagi ekologik muammolar ham ko'payib, yiriklashib, tirik tabiatga havf sola boshlaydi.



bular insonlarning yashashi va turmush tarzi uchun juda katta qulayliklar tug'diradi, ammo tabiat va undagi tirik organizmlarning rivoji uchun ekologik xavf olib keladi.

Insoniyat ko'pincha o'zi ham tabiatning bir bo'lagi ekanligini unutib qo'yib, tabiatga salbiy ta'sir qilib, undagi muvozanatlarni buzadi, o'zi o'ylamagan holda umum sayyoraviy, mintaqaviy, hududiy va milliy ekologik xavflarni vujudga keltiradi. Ona sayyora bugun inson ta'siridan davolanishga muhtoj, kambag'allik, ochlik, aholining uzluksiz o'sib borishi, ur-banizatsiya, tabiiy boyliklardan ochko'zlik bilan foydalanish, suv, yerga, energiyaga bo'lgan talabning oshib borishi biosferaga zarba bermoqda.

FAO ma'lumotlariga ko'ra yana 30-yildan so'ng aholini boqish uchun oziq-ovqat mahsulotlari 60% ko'payishi kerak. Oziq-ovqatlarni yetishtirishga suv kerak. 2030- yilda yer sharidagi 25% aholi ichimlik suvi yetishmasligidan qiynaladi. Bugungi kunda dunyo aholisi,

Ayniqsa yosh bolalar ichimlik suvi toza bo'lmagani uchun qator kasalliklarga chalinmoqda. BJSST ma'lumotlariga ko'ra 14 yoshgacha bo'lgan 13.5, ming bola har yili Yevropada sifatsiz suv ichishidan sanitariya-gigiena me'yorlariga rioya qilmaslik natijasida kasallanib hayotdan ko'z yummoqda. MDHda suvdan foydalanishda bironta yangi loyiha amalga oshmadi, suv bilan ta'minlanish kommunal sharoit og'irlashgani bilan yanada yomonlashdi. Sanoat va kimyo sohasining rivojlanishi atmosfera yoki suvlar tarkibining qattiq metallar, radioaktiv moddalar, mineral o'g'itlar, gerbitsidlar va boshqalar bilan ifloslanishiga olib keldi.

Tuproq, suv, o'simliklar va hayvonot dunyosi keyingi villarda barcha mamlakatlarda sanoatning rivojlanishidan juda katta aziyat chekmoqda. Har kuni yer yuzida 1 ta tur o'simlik yoki 1 ta tur hayvon yo'qolib bormoqda.

O'zbekistonda maishiy va sanoat chiqindilari 1 mlrd. 400 mln. tonnadan oshib ketdi. Bu chiqindilar tuproqni, suvni, atmosferani ifloslantiruvchi manbadir. Sanoat, avtomobil va temir yo'l transporti respublikada juda katta tezlik bilan rivojlanmoqda. Ana shularni hisobga olib mazkur kitobda ekologik qonun-qoidalarga rioya qilishga oid chora-tadbirlar va usullarni oddiy til bilan bayon qildik.

Ma'lumki, XXI asrdan boshlab suv - oltin, uran, *gaz*', ko'mir va boshqa foydali qazilmalardan ko'ra qimmatbaho xomashy hisoblanadi. AQSH Milliy qidiruv Kengashi taxminiga ko'ra yaqin 20 yil ichida xalqaro majarolar xavfning o'sishi ayna ichimlik va qishloq xo'jaligi uchun suv yetishmovchiligi sabab bo'lishini e'tirof etishmoqda (A.Paximov// Эко планеты, №4(2008). Lekin arid hududlarda suv - hayot inonbai, insoniyat turi mush tarzining yaxshilanishida eng asosiy resurs boyligi hisoblanadi. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish davrida iqtisodiyot tarmoqlarining jadal rivojlanishiga ta'sir etuvchi omil suv resurslarining miqdori va sifatidir. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Suv va suvdan foydalanish to'g' risida"gi qonun (1993-yil 6-may)ning 10-moddada suvdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishning iqtisodiy choralar 111 va 112-moddalarida aynan suv resurslaridan mukammal; foydalanish va uni muhofaza qilish jadvallarini ishlab chiqish tartibi masalalariga bag'ishlangan. Ushbu masalaning umumdavr nuqtayi nazaridan dolzarbligi qonunda alohida ta'kidlab o'tiladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda mamlakatni barqaror rivojlantirish bo'yicha dastur ishlab chiqilgan (1998-yil 14-dekabr Unda O'zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirishni birdan-bir strategik maqsad bosqichi quyidagicha belgilangan: O'zbekistonning kelajak avlodi uchun yer-suv va boshqa tabiiy resurslaridan foydalanishni saqlash maqsadida oqilona samanligini oshirmoq darkor. Mamlakatda yashayotgan kishilar va kelajak avlod uchun tabiiy resurslar imkoniyatidan oqilona foydalanish va atrof-muhitni musaffo holatda saqlash talablarini qondirish ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barqaror rivojlanishiga asos yaratadi.

I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» (—T., O'zbekistotf, 1997. -129 b.) nomli fundamental monografiyasida quyidagi Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro tashkilotlarning Orol dengizi havzasini barqaror rivojlantirish muammosi bo'yicha Deklaratsiyasini (20-sentabr, 1995 y.) g'oyat muhim muammosi ta'kidlagan: « Mintaqaning tabiiy zaxiralarini kompleks boshqarish tizimini takomillashtirish». Mavjud muammolar respublika aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash maqsadida sug'oriladigan yerlarda asosiy hisoblangan suv resurslari kelajak davrlarga kelib, ma'lum bir ma'noda o'z talabini qo'yadi (N.R. Hamroev va boshq., 1998 y.). Respublikamizda yer va mehnat resurslari sohasida muammolar yo'q, biroq suv resurslari miqdori cheklangan. Shved olimlari Lars Krister Lundin va boshqalarning (2003 y.) hisoblashlariga ko'ra ushbu masala yanada murakkablashadi, agar yarim qurg'oqchilik sharoitida 1 kishiga yiliga 1300 m suv talab qilinsa, respublikani barqaror ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish strategiyasiga asosan suv ta'minotini yaxshilash, hududlarni suv bilan unumli va ta'minlash uchun suv resurslarini integrativ boshqarish zarur bo'ladi. Orol dengizi havzasida asosiy e'tiborni boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq, bir tomondan yer va mehnat o'rtasida, ikkinchi tomondan suv resurslarining notekis ravishda taqsimlanganligi aniq ko'rinib turibdi.

Suv hayot manbai ekanligini faqat issiq va o'ta issiq, quruq iqlim sharoitidagina to'la tasavvur etish mumkin. Xalq iborasi bilan aytganda: qayerda suv paydo boisa, o'sha yerda hayot boshlanadi, suv tugagan yerda esa hayot ham tugaydi. Shuning uchun ham qadim zamonlardan boshlab o'lkamizda suvga hurmat, uni e'zozlash, isrofgarchiligiga va ifloslanishiga yo'1 qoymaslik ruhi hukm surgan. Shu bilan birga "suvday serob bo'l", «oldingdan oqqan suvning qadri yoq» va shu kabi iboralar ma'lum sharoit va davrda o'z «xizmatini» o'tagan. Ayniqsa, asrimizning 50-yillarida «tabiatni xalq izmiga bo'ysundirish» uchun boshlangan kurash o'ziga xos hayot maktabi bo'ldi va muhim xulosalarga olib keldi. Ular ichida eng muhimi, suv boyliklarining cheklanganligini, ularga ortiqcha miqdorda iflos suv tashlanmagandagina o'z sifatini saqlab qolishi mumkinligini, tabiat yo'l qo'yilgan xatolarni kechirmasligini va har bir xato uchun qasos olishini tushunishdan iborat bo'ldi. Maxsus tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, soni doimo o'sib borayotgan sayyoramiz aholisini (agar uning soni 1800-yilda - 0,9 mlrd., 1920-yili - 1,8 mlrd., 1970-yil - 4,0 mlrd., 1990-yil - 5,2 mlrd., 2000-yil - 6,3 mlrd. Bo'lgan bo'lsa, 2050-yil - 1 I mlrd. Bo'lishi kutilmoqda) oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun 2050-yilga kelib, 500 mln.ga Sug'oriladigan yerlarda yuqori hosildorlikka erishisli uchun dehqonchilik qilish (hozirda bu maydon 285 mln.ga yaqin) kerak bo'ladi. Ammo mavjud suv boyliklari faqat 450 mln. gektar yerni sug'orishga yetadi. Bugungi kunda umumiy haydaladigan yer maydoni qariyb 1500 million 1 gektarni tashkil etadi, jumladan, 1 kishiga hisoblaganda 0,25 gektarga to'g'ri keladi. Butun yetishtiriladigan mahsulotning 40 foizi sug'oriladigan yerlardan olinadi.

Qishloq xo'jaligida 70 foizga yaqin daryo, ko'l va yer osti suvlaridan

foydalaniladi, qolgan 30 foizi sanoat va maishiy xizmatda ishlatiladi, Qurg'og'chilik hududlarda 90 foiz suvlar qishloq xo'jaligida foydalaniladi (Lors Krister Lundin va boshq., 2003 y.). Orol dengizi havzasida hozirda qariyb 30 mln. aholi, 7,3 mln. gektar sug'oriladigan yer mavjud. Havzada sug'orishga yaroqli yer maydoni 60 mln. gektarga yaqin bo'lib, mavjud suv boyligi juda borsa 10 mln. gektar yerni sug'orishga yetadi, xolos, 1980-yilga kelib, yer sharida 4,5 mlrd.ga yaqin aholi bo'gan, ulardan 1,5 mlrd.ga yaqini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlangan emas, natijada bir kecha-kunduzda ichishga yaroqsiz suv iste'mol qilish natijasida 30 mingga yaqin kishi halok bo'layotgani aniqlangan. Orol havzasi va shu jumladan, O'zbekiston hududi ham bundan mustasno emas. O'tgan davrda yo'l qo'yilgan xatolar natijasida Amudaryo suvi Termiz shahridan Surxondaryo - janubiy Surxon suv omboridan, Qashqadaryo Chim qishlog'dan, Zarafshon daryosi Samarqand shahridan, Sirdaryo o'zani hosil bo'lgan joyidan, Chirchiq daryosi Toshkent shahridan pastda ichimlik uchun butunlay yaroqsiz holga keldi. Natijada Buxoro, Toshhovuz, Xorazm, Qizilo'rda, Qoraqalpog'iston Respublikasi xalqi ichish uchun umuman yaroqsiz suvni iste'mol qilishga majbur bo'lib qoldi, Bu esa tashqi muhitning umumiy ifloslanishi va oziq-ovqat bilan ta'minlashning yomonlashuvi bilan birga, aholining deyarli 90 foizini xastalikka olib keldi.

Demak, dunyoda shu jumladan, Orol dengizi havzasida ham hayotni ta'minlash omillaridan biri - suv boylıklaridan ilmiy asosda foydalanishni tashkil qilishdan iborat. Bu muammoning zarurligi sobiq SSSR hududida dunyoda birinchi marta 1960-yil tan olingan bo'lsada, uni amalga oshirish, ilmiy-amaliy asoslarini yaratish, o'qitish, mutaxassislar tayyorlash asosan 70-yillarning oxirida boshlandi, Keyingi yillarda mamlakatimizda suv resurslaridan oqilona (mukammal) foydalanish va tabiat muhofazasiga katta e'ibor berilmoqda. Bir qator hududlarda suv resurslarining tugab qolishi, daryo, ko'l, ichki havzalarning taqdiri kishilarni jiddiy xavotirga solmoqda. Mavjud suv muammolari yetarli darajada ilmiy asoslanmaganligini alohida ta'kidlash lozim.

Hozirgi kunda suv muammolari eng asosiy va murakkab ilmiy- texnik muammolardan biri hisoblanadi. Shu sohada YUNESKO tomonidan keng Xalqaro gidrologik dastur tuzilgan bo'lib, bu dasturni amalga oshirish uchun yuzdan ortiq mamlakatlardan olimlar ishtirok etishmoqda.

MDH mamlakatlarida ham suv iste'molining va oqova suvlar hajmining jadal sur'atlar bilan oshib ketishi sababli oxirgi yillarda suv tanqisligi ancha murakkablashgan. Biroq xalq xo'jaligining rivojlanishi rejalashtirilgan mamlakatlarda mavjud muammolarni yechish mumkin. Bu esa bir necha yillarga mo'ljallangan katta xarajatlar evaziga rejalashtirilgan kuchni talab etadi.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida suv resurslaridan mukammal foydalanish bilan bog'liq masalalar katta ahamiyat kasb etmoqda. Ko'p yillar mobaynida yirik gidrotugun qurilishlari amalga oshirilib, uning asosiy qismlari gidroenergetika, suv ta'minoti, sug'orish va boshqa suv xo'jaligi majmuasi qatnashuvchilarining ehtiyojini qondiradi. Yerlarni sug'orish va meliorativ holatini yaxshilash loyihalari hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etilmoqda.

Suvning zararli ta'sirlarini bartaraf etish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqilmoqda, baliqchilik xo'jaligi tizimlari yaratilmoqda. Daryo oqimlarini alohida suv havzalari ichida hamda ular oralig'ida qayta taqsimlash masalalariga katta e'tibor berilmoqda. Mahalliy suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni ifloslanishdan muhofaza qilish muammolari hukumatimiz rahbarlari diqqat markazida turibdi, Bu muammolarning o'z yechimini topishi suv va qishloq xo'jaligining rivojlanishida yangi yirik bosqichni tashkil etishiga aminmiz.

Ish faoliyati suv bilan bog'liq bo'gan muhandis-texnik xodimlarni tayyorlashda ularning suv resurslaridan mukammal foydalanish va tabiatni muhofaza qilishga oid barcha xususiyatlarni bilish zarur hisoblanadi. Tabiat va jamiyatda suv va uning ahamiyati to'g'risida juda ko'p yozilgan. Antuan de Sent Ekzyuperi «suv dunyoda eng bebaho boylikdir» deb aytgan edi. Bu haqiqatan ham shunday. Nima uchun suv muammosi paydo bo'lgan, uni hal qilish yo'llari nimalardan iborat degan savol tug'iladi?

Suv resurslaridan mukammal foydalanish va muhofaza qilish fani xuddi shu savollarga to'liq javob beradi. Bu fanning asosiy maqsadi tadqiqot olib borilayotgan hududlardagi mavjud suv resurslari va suv iste'molchilarini tadqiqot yili, yaqin va istiqbol davrlar uchun baholashdan iborat.

Mavzuni ahamiyati. Orol dengizi havzasining suv resurslari tabiiy holda shakllanadigan va qayta tiklanib turadigan yer usti va yer osti suvi resurslari hamda qaytariladigan suvlardan tashkil topgan. Barcha suv resurslari Sirdaryo va Amudaryo havzalariga tegishlidir. Mustaqil suv havzalarini (ya'ni suvi oqib chiqib ketmaydigan! Amudaryoga yaqin) Qashqadaryo, Zarafshon, Murg'ob, Tejen daryolari tashkil qiladi. Amudaryo va Sirdaryoning umumiy o'rtacha yillik suv oqimi $115,6 \text{ km}^3$ ni tashkil etadi, shu jumladan, Amudaryo bo'yicha - $78,5 \text{ km}^3$ va Sirdaryo bo'yicha - $37,1 \text{ km}^3$ ga teng. Bu daryolarning o'rtacha ko'p yillik suv oqim miqdori katta diapazonda o'zgarib turibdi. Markaziy Osiyo Respublikalari o'rtasida taqsimlash va ulardan foydalanish kelishuv qabul qilindi.

Markaziy Osiyo hududlarida suv resurslaridan foydalanish holati hozirgi kun talabiga javob bermaydi, chunki hozirgi davrda suvdan foydalanishda behuda va befoyda sarflarga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydigan darajadadir. Jumladan, kommunal maishiy xo'jaligida suvdan foydalanishda suvni befoyda sarflash, ya'ni suv o'tkazgichlar armaturasidagi quvurni ulanishjoylarida tirqishlardan siljib sarflanish 40 foizni tashkil etadi, sug'oriladigan dehqonchilikda suvdan

foydalanish, ya'ni qishloq xo'jalik ekinlarining fiziologik talabini qondirish uchun sarflanadigan suv miqdori dalaga yetkazib beriladigan suvning 20 foizni tashkil etadi, xolos, sanoat tarmoqlarida esa hozirgi kunda ham ko'plab (nooziq-ovqat) korxonalarida suvdan to'g'ridan-to'g'ri va ketma-ket tizimlarda foydalanayotganini qayd etish mumkin.

Shuning uchun bugungi suv resurslaridan oqilona foydalanish va yaxshilashda respublika ilmiy tadqiqot institutlari va shlab chiqarish tashkilotlari oldida quyidagi dolzarb vazifalar urganini qayd etish mumkin:

1. Respublika ilmiy tadqiqot institutlari va ishlab chiqarish korxonalari 2010-2015-yillarda:

- suv resurslarini vaqt davomida miqdor va sifat o'zgarishlarini hozirgi zamon talablariga javob beradigan aniqlikda qayd etishning ilmiy asosini va uslubini yaratishlari;

- suv resurslarining miqdorini yuqori aniqlikda hisoblashning ilmiy asosini va uslublarini yaratish;

- suv resurslarining rejimini o'zgarishini kuzatishni hozirgi zamon texnik asosini ta'minlashning ilmiy asosini va asbob-uskunalarini yaratish;

- muhitdagi suvning sifatini doimiy nazorat qilishning ilmiy asosini va asbob- uskunalarini yaratish;

- Transchegaradosh va davlatlararo suv obyektlari suv resurslarini turli qo'shni mamlakatlar o'rtasida optimal va, oqilona taqsimlashning prinsipial usullarini ishlab chiqish va tatbiq qilish.

2. Respublika oliy o'quv yurtlari oldida yuqorida bajarilishi zarur bo'lgan ilmiy tadqiqot va ishlab chiqarishni yetuk mutaxassislar bilan ta'minlash vazifasi turganligini qayd etish zarur.

Demak, respublikamizda 2010-2015-yillarda suv xo'jaligi sohasida inqilobiy rivojlanish amalga oshirilib, yuqorida sanab o'tilgan masalalarning hal qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi davrga kelib, insoniyat rivojlanish juda yuksak rivojlanish bosqichida bo'lib, insoniyatning tabiatga ta'siri kuchayib bormokda. Aholi sonining dunyo miqyosida shu suratlar bilar ortib borishi, aholini yashashi va xayoti uchun kerakli iste'mol maxsulotlari bilan ta'minlash masalasi hozirgi davming eng dolzarb muammolaridan biri xisoblanadi. Insoniyatning tabiiy resurslaridan keng miqyosida foydalanishi oqibatida tabiatga va uning biosfera jismida ekalogik nuqtai nazardan juda keskin o'zgarishlar kelib chiqmoqda. Shunday o'zgarishlar tabiatning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan suv resurslaridan foydalanish va oqibatda kelib chiqayotgan ekalogik muammolarning o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham suv resurslaridan foydalanish soxasida davrimizning ko'pgina olimlari katta izlanishlar olib borganligi sababli suv resurslaridan foydalanish soxasida katta ishlar amalga oshirildi.

Bitiruv malakaviy ishini mavzusini bajarish va o'rganish jarayonida shu mavzuga oid adabiyotlar bilan ishlashga ulami o'rganishga to'g'ri keldi, Har bir xududning o'ziga xos

ekalogik xususiyatlarning o'rganishda shu xududni joylashgan geografik, iqtisodiy va ijtimoiy xolatlarini o'rganishda P.Baratov, O'zbekiston tabiiy geografiyasi (1996 y) Asanov T, Nabixonov M, Sodikov I - "O'zbekiston ijtimoiy va iqtisodiy geografiyasi" (1994 y), Soliev X, Axmedov E va boshqalar -"Mintaqaviy iqtisodiyot" (2003y), Baratov P " Tabiatni muxofaza qilish va o'zgartirish" (1970 y), Otaboev Sh, Nabiev M - "Inson va biosfera" (1995 y) Jo'ra Qo'ldosh "Mustaqillik nuri bilan" (1996y) laming ishlar bilan tanishib o'rganildi. Shuningdek, suvning tabiatdagi va inson va xayotidagi ahamiyati va sugorilgan yerlarda dehqonchilikni olib borishda olib borilgan ishlarni o'rganish jarayonida Zoxidov A.Z -"Vodaxozyatstvennie sistemi Sredney Azii" (1971 y) Murodov Sh, Valiev X va boshqalar "Suv resurslaridan mukammal o'rganish va muxofaza qilish" (2007 y), Suv tarmogida tashki tarmoq va inshootlar (1998 y) Maxmudova I, Shaxobiddinov A "Qishloqlar va yaylovlar va suv ta'minoti" (2002 y), Lvovich M.I Vodaijizn (1986 g), Mirov S vodnie resursi i ix budushee (1974 g) laming ilmiy va amaliy ishlari bayon etilgan ma'lumotlar asosida o'rganildi. Shular bilan birga Paxtaobod tumaning tabiatni muhofaza qilish tashkiloti, suv xo'jaligi tarmoqlarini boshqarish tashkiloti va viloyat suv xo'jaligi boshqarmasining Paxtaobod tumanidagi suv tarmoqlarining xolati haqidagi ma'lumotlardan foydanildi.

Yuqorida keltirilgan adabiyotlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar va xo'jalik tashkilotlari tomonidan olingan ma'lumotlarga asoslanib ushbu bitiruv malakaviy ishni bajarildi.

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jarayonida ko'mak yordam bergan Andijon viloyati Paxtaobod tumani suv xo'jaligi va tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi raxbarligiga, xodimlariga uz minnatdorchiligimizni bildiramiz.

I BOB. MARKAZIY OSIYO VA O'ZBEKISTON SUV RESURSLARI

Markaziy Osiyoda joylashgan Orol dengizini qurishi nafaqat O'zbekiston, balki jahon hamjamiyatini ham tashvishga solmoqda. Mazkur mintaqada chuchuk suv etishmasligi dolzarb muammo hisoblanadi. Bu esa atrof-muhitga o'tmishda ham, hozirgi kunda ham sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Suv qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtiradigan va unumdorligi kam sho'rxok yerlarda asosiy resurs vazifasini bajaradi. Daryodan kollektor-drenaj yordamida suv chiqarish va oqava suvlarni tozalaydigan samarasiz tizimlar esa suv resurslarining sifati yomonlashishiga hamda suvning sho'rlanishi kuchayishiga olib keladi. O'zbekiston uchun suv mavzusi nihoyatda dolzarb va o'zining muammolar majmuiga ko'ra ko'p qirralidir.



hi davlat
ptekis
taqsimlanganligi bilan alohida ajralib turadi. Yurtimizda mavjud suv resurslarining atigi 10 foizigina mamlakatimiz ichidan oqib o'tadi, bu esa O'zbekistonning suv xo'jaligi taraqqiyoti qo'shni davlatlardan oqib keladigan suvga nihoyatda bog'liqligini anglatadi. Bahodir Teshaboevich, "Ekologiya xabarnomasi - Ekologicheskiy vestnik" jurnali o'quvchilarini O'zbekiston hududida suv taqsimotiga doir o'ziga xos xususiyatlar bilan batafsil tanishtirsangiz.

- Orol dengizining barcha havzalari tom ma'noda transchegaraviy daryolar hisoblanadi. Amudaryo daryosi havzasi tarkibiga Surxondaryo, Sherobod, Qashqadaryo va Zarafshon daryolari havzalari kiradi.

Ular ichida faqat Qashqadaryo va Sherobod daryolari havzalarigina to'laligicha O'zbekiston hududida shakllanadi. Asosiy daryo hisoblanmish Amudaryo daryosi havzasi suvi

kimyoviy tarkibini taxlillanishida O'zbekiston va Turkmaniston hududida joylashgan qishloq xo'jaligi maydonlaridan xosil bo'lgan oqova suvlar xam o'z xissasini qo'shmoqda. Amudaryo suvining Termizdan oqib o'tadigan qismida suvning ifloslanish indeksi (SII) sifati kattaligi bo'yicha 1996 yildagi turg'un holatda saqlangan, ya'ni II sinf - toza suv bo'lsa, daryoning qolgan qismlarida suv ifloslanishi o'rtacha darajada bo'lib, III sinfga taalluqli, 2001 yilda Amudaryoda suv holati esa II sinfga mansub. Tuyamoyin gidropostida suvning tarkibida neft, azot, ammoniy, mis mahsulotlari eritmalari hamda suvning minerallashishi kuzatilmoqda.

Sirdaryo daryosi suvlari Qirg'iziston Respublikasining tog'li hududlarida Norin va Qoradaryoning qo'shilishi bilan shakllanadi hamda O'zbekiston Respublikasi hududiga Andijon viloyatining Uchtepa Qo'rg'oni joylashgan mintaqaga, Norin daryosi esa Namangan viloyatining Uchqo'rg'on shahri hududiga oqib keladi.

O'zbekiston hududiga kirishda Qoradaryo va Norin daryolari suvlarida vaqt-vaqti bilan azot nitritining (1,2-2,6 PDK), fenolning (2-4 PDK) va neft mahsulotlarining (1,6-5,2 PDK) yuqori tarkiblari qayd etilgan. Suvlarni ifloslanish indeksi (SII) bo'yicha daryo suvi sifati uning butun uzunligi bo'yicha III-sinf – o'rta me'yor ifloslangan suvlar darajasida saqlanib turgan.

Zarafshon daryosi dengiz sathidan 2775 m balandlikda, Tojikiston Respublikasining Turkiston va Xisor tog' tizmalarining birlashgan joyida, Zarafshon muzligidan boshlanadi va O'zbekiston hududiga Ravot-Xo'ja t'yg'oni atrofidan kirib keladi. Daryo Zarafshon vodiysining asosiy suv manbai bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 4 oktyabrdagi "Zarafshon daryosi havzasida ekologik va sanitar-epidemiologik vaziyatni yaxshilash to'g'risida"gi 401-sonli qarorini bajarish borasida, Buxoro, Navoiy, Samarqand va Jizzax viloyatlarida Zarafshon daryosi va unga kelib qo'shiladigan irmoqlardagi suv sifatining monitoringi olib borilmoqda, daryoga noqonuniy tashlamalarni tugatish borasida o'z vaqtida choralar ko'rilmoqda, daryoga tashlamasi bo'lgan ob'ektlardan oqizilayotgan suvlar tizimli nazorat qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi atrof tabiiy muhiti ifloslanishi monitoringi ma'lumotlariga ko'ra, Zarafshon daryosi suvlari O'zbekiston Respublikasiga kirishida (Ravot-Xo'ja) muntazam ravishda fenol bilan 2-4 PDK va mis bilan 1,1-3,5 PDK atrofida ifloslangan bo'lsada, uning sifati II-toza suvlar sinfiga, keyinchalik daryo oqimi bo'ylab pastga qarab oxirigacha III-sinf - o'rta me'yor

ifloslangan suvlarga o'tgan.

Sirdaryo havzasi tarkibiga ko'pgina daryolar kiradi. Norin, Qoradaryo, Chirchiq, Ohangaron daryolari asosiy daryolardir. Ular orasida faqat Chirchiq va Ohangaron daryolari transchegaraviy daryolar sirasiga kirmaydi. qolgan daryolar (shu jumladan, Farg'ona vodiysidagi kichik daryolar, Chirchiq daryosining irmoqlari) Qo'shni davlatlar hududidan oqib o'tadi.

Sirdaryo daryosi O'zbekiston hududi bo'ylab ikkita uchastkada oqib o'tadi: yuqori - Norin daryosining ?O'shilish joyi va Qoradaryo hamda quyi -Ohangaron va Chirchiq daryolari etaklari.

O'zbekistonda 500 ga yaqin ko'l bor bo'lib, ushbu kichik suv havzalarining maydoni 1 km² atrofida. Faqat 32 ta ko'lning yuza qismi 10 km² dan oshadi. Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi O'zbekistondagi eng katta ko'l hisoblanadi. Mazkur ko'l To'xtagul suv omboridan qish paytida suv tashlash natijasi orqali vujudga kelgan. Aydar-Arnasoy ko'llar tizimining umumiy maydoni 3600 km² va ko'lami 42 km². Ushbu ko'l boshqa barcha suv omborlari suvi zaxirasini oshiradi. 2008 yilda "Asosan suvda yashovchi qushlar uchun qo'nim hisoblangan xalqaro ahamiyatga ega suv-botqoq hududlari to'g'risida"gi Xalqaro Konvensiyasi (Ramsar Konvensiyasi) ro'yxatiga kiritildi.

Suv omborlari O'zbekiston suv resurslari tizimini boshqarishni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlamok maqsadga muvofiq. Mamlakatda suvning kamayishi va ko'payishi (gidrologik ekstremum) hamda suv resurslarining hajmi doimiy nazorat ostiga olingan. Ayni paytda mamlakatda ko'p suv omborlari mavjud, ulardan irrigasiya ishlarida samarali foydalanilmoqda.

Suvni tabiatdagi, ya'ni ekologik tizimdagi o'mi va ahamiyati nihoyatda muhim bo'lib, akademik Oparinning nazariyasi bo'yicha, Yerda hayotning paydo bo'lishi va nuning rivojlanish asosini tashkil etadi. Suv tabiatdagi modda va energiya almashinuvida. ayniqsa, o'simlik dunyosini qayta tiklanishida muhim ahamiyatga ega.

Suv resurslarini ifloslanishdan, bu'g'lanishdan va miqdorining kamayib ketishidan muhofaza qilishning ekologik asosi bo'lib, suvni ekologik tizimning ajralmas tarkibiy qismi ekanligi, ya'ni yerdagi hayotning mavjudligini ta'minlovchi omil ekanligidir. Tabiat yaxlit tizimining ajralmas qismi bo'lgan suvning ifloslanishi, bug'lanishi, hattoki zaharlanishi va miqdorining kamayib ketishi bu tizimdagi salbiy jarayonlarni yuzaga kelishining, biologik muvozanatni hamda undagi modda va energiya almashinuvining buzilishini, o'simlik va hayvonot dunyosiga va jumladan, inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini yuzaga keltiradi. Shunday holatni yuzaga kelishning oldini olish ekotizimdagi optimal tabiiy sharoitning buzilishiga yo'l qo'ymaydi hamda biosferaning evolutsion rivojlanishini ta'minlaydi.

Shuning uchun suv resurslarini ifloslanishdan, bug'lanishdan va miqdorini kamayib ketishdan muhofaza qilishning ekologik asosi, uni optimal tabiiy muvozanatini ta'minlash muhim ahamiyatga egadir.

Suv resurslarini muhofaza qilish, undan turli maqsadlarda) oqilona foydalanish jarayonida uzluksiz ravishda amalga oshirilishi kerak. Buni amalga oshirish masalasi suv resurslarining ifloslanishini va miqdorining kamayishini qayd etish va aybdorlarni huquqiy choralar bilan jazolashdan iborat boiibgina qolmasdan, balki tabiatdan foydalanish, jumladan, suv resurslaridan

foydalanish, tabiiy hodisalarning qonuniyatlarini aniqlash asosida, suv resurslarining ifloslanishiga, miqdorining kamayishiga va behuda sarflanishiga olib keladigan tabiiy va sun'iy sabablarni va omillarning o'rnatilishi asosida amalga oshirilishidir. Shundan kelib chiqqan holda, suv resurslarini muhofaza qilish, uni shakllanish jarayonidan boshlanib, shakllangan obyektidagi (yer osti va yer usti) suv miqdorlarini va sifatini muhofaza qilishning texnik tadbirlarini ishlab chiqishdan iborat bo'lishi kerak.

Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqqan holda, suv resurslarini muhofaza qilish deb, suv resurslarining tabiiy va sun'iy omillar ta'sirida ifloslanishi, bulg'anishi va miqdorining kamayib ketishini hamda suvning behuda va befoyda sarfini bartaraf qilishga qaratilgan ilmiy asoslangan huquqiy, tashkiliy, ijtimoiy texnikaviy va iqtisodiy tadbirlar tizimiga aytiladi.

Tabiat qonuniyatlarini o'rganish asosida suv resurslarini . muhofaza qilish vazifasiga quyidagilar kiradi:

1.Suv resurslarining ifloslanishini, uni shakllanish jarayonida oldini olish chora-tadbirlarini uzluksiz ravishda amalga oshirish, ya'ni atmosfera havosi va tuproq qatlamining ifloslanishini oldini olish chora-tadbirlarini to'liq miqyosda amalga oshirish.

2.Suvni ifloslantiruvchi o'choqlarining paydo bo'lishini oldini oluvchi profilaktik tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish.

3.Suvdan oqilona foydalanish nuqtayi nazaridan undan foydalanishni to'g'ri rejalashtirish. Bularni amalga oshirish uchun albatta, ilmiy asos va yagona qat'iy siyosat bo'lishi shart.

Arid iqlimli mintaqada suv resurslaridan oqilona foydalanishning yagona qat'iy siyosati bo'lib - suvning har tomchisi hisobga olingan bo'lsa, ilmiy asosi- tabiatdagi (yer usti, yer osti va atmosfera yog'in) suvlarning birlik qonunidir.

Suv resurslarini muhofaza qilishning huquqiy samaradorligini oshirishni ta'minlash ko'pjihatdan bu ishni amalga oshirishning huquqiy asosiga O'zbekiston mustaqillikka erishgandar so'ng, bu masalagajiddiy e'tibor'qaratila boshlandi. Tabiatni VE jumladan, suv resurslarini muhofaza qilishning huquqiy asosin yaratishga va uni takomillashtirishga katta e'tibor berilayapti O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkita moddasi am shu masalaga bag'ishlangan, jumladan:

**Paxtaobod tumanida sugoriladigan maydonlarini qo'shimcha suv bilan
ta'minlash uchun xizmat qiluvchi suv shahobchalari**

№	Suv etkazib beruvchi suv tarmog'i	Suv chiqarish qobiliyati m-kub sek	Suv Ko'tarish bagendli gi metr	Suv olib keluvchi k-1 uzunligi km	Mashina kanalini ng uzunligi .k m	Sugorish maydoni ga	Qaerdan suv oladi
----------	--	---	---------------------------------------	--	--	----------------------------	--------------------------

1	Do'stlik	1.5	78	23,5	22,5	5068	Norin
2	Mustakillik 8 yilligi	1,5.		8		1191	KFK
3	Olamayclon	1Д				660	KFK
4	Guliston	1,1				3827	Paxtaobo d kanal
5	Madaniyat	0,72	22	1	1	1600	Paxtaobo d kanal
6	Sigma	0,25	30	Do'stlik k-1		500	Norin
7	Andijon	0.35	40			870	Paxtaobo d kanal
8	Yangi xayot	0,3	30			1100	Paxtaobo d kanal
9	Madaniyat 2	0,7	25			1000	Paxtaobo d kanal

1.1. Paxtaobod tumanining tabiiy, iqtisodiy va geografik o'rni

Paxtaobod tumani vodiyning shimoli-sharqida tekislikda joylashgan. U Andijon shahridan 24 kilometr shimoli-sharqida bo'lib, dengiz sathidan 300 metr balandlikda joylashgan. Iqlimi mo'tadil.

Tumanni Qoradaryo, Tentaksoy, Chirtaksoy daryolari kesib o'tadi. Bu daryolar bahor oylarida to'lqin havfi solib turardi. Shuning uchun ulaming qirg'oqlari harsang toshlar bilan mustahkamlangan. Tumanning asosiy suv manbai Qoradaryo bilan Maylisoydir. «Do'stlik» va «Olamaydon»-nasos stansiyalari qurilgandan keyin Norin daryosidan ham suv olinadigan bo'ladi. Tuman markazi — Qo'qonqishloqqa 1975 yilda tumanga bo'ysunadigan Paxtaobod shahri maqomi berildi. Unda maktablar, bog'chalar, mehmonxona, restoran, bir necha oshxona, kinoteatr, axoliga hizmat qilish uyi, poliklinika, avtomobil bosh bekati bor. Ko'ngilli hordiq, chiqarish uchun istirohat bog'i, o'yingoxlar mavjud. «Sohil» istirohat oromgohi hamisha gavjum.

Tuman aholisining soni tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. 1995 yil yanvaridagi ma'lumotlarga qaraganda, axoli 127 ming 480 kishidir. Ular 28 ming 759 oilada istiqomat qiladi. Tumanning umumiy yer maydoni 26 ming 33 gektar. Ekin maydoni 1522 gektar, shundan 8184 gektari paxta, 6150 gektariga boshqoli don ekiladi. Yangidan o'zlashtirish mumkin bo'gan yerlar yo'q..

Aholi punktlarining 80 foizi toza ichimlik suvi bilan, 20 foizi tabiiy gaz bilan ta'minlangan.

Tumanda 85 mahalla, bo'lib, ular 5 qishloq fuqarolar yig'iniga birlashgan jamoa ho'jaligi, 2 agrofirma mavjud, 10 sanoat korxonasn, 7 qurifish tashkiloti, 4 transport korxonasn, 2 savdo bazasi, kasalxonalar ishlab turibdi.

Tumanda hozirda 180 fermer ho'jaligi bor. Ularga tuman xokimining qarori bilan 1247 gektar yer maydoni ajratib berilgan.

Bugungi kunda 287 hususiy korxona faoliyat ko'rsatmoqda. Bu korxonalarda turli halq, iste'moli mollari ishlab chiqariladi. 567 maishiy hizmat ko'rsatish shoxobchasi mavjud. Ularda 855 kishi aholiga hizmat ko'rsatmoqda.

Umumiy ta'lim maktablari 42 ta bo'lib, ulardan 36 tasi o'rta, 6 tasi to'iqsiz o'rta maktablardir. Bundan tashqari bitta internat, ikkita gimnaziya, bitta hunar litseyi faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda 30 mingga yaqin bola ta'lim olmoqda.

1.2. Paxtaobod tumanidan oqib o'tuvchi suv tarmoqlari va tuman xalq xo'jaligidagi ahamiyati

Paxtaobod tuman Andijon viloyatining yirik tumanalilan biri bo'lib, viloyat tumanlari ichida o'ziga xos tabiiy geografik tabiatiga ega va ijtimoiy iqtisodiy ishlab chiqarishsaloxiyatiga ega bo'lgan tumanalardandir. Viloyatning qishloq xo'jalik maxsulotlarini ilab chiqarish maxsulotlarini ietkazib berishda yetakchi tuman xisoblanadi. Ayniqsa qishloq xo'jaligi maxsutlotlaridan paxta, g'alla, bog' va sabzavot poliz ekinlari maxsulotlarini tayyorlashda yetakchi o'rinlarda turadi Tumand aqishloq xo'jaligi maxsulotlarini tayyorlash va yetkazish asosan sug'orma dexqonchilikka bog'liq bo'lib, ekin ekiladigan maydonlarni sug'orish oorqli amalga oshiriladi. Paxtaobod tumanida jami 15940 gektar sug'oriladigan yer maydoni mavjud bo'lib ushbu maydonlar asosan Farg'ona vodiysining ikkita daryosi: norin daryosi suv manbaidan va Maylisoy daryosi suv manbaidan sug'oriladi. Ya'ni Qoradaryo suv manbasi - 11340 gektar Maylisoy suv manbasi -8200 gektar ekin maydonlarini suv bilan ta'minlaydi. Qoradaryodan Paxtaobod, Niyozmat kanallarri suv oladi va tumandagi sug'oriladigan maydonlami ta'minlaydi.

Tentaksoy, Chirtaksoy, Mayliosy, Do'stlik kanallari o'z suv yo'nalishlarida qishloq xo'jlighi ekinlari uchun suv beradi.

Ushbu ochiq suv xavzalarri asosan qishloq xo'jaligi yer maydonidagi ekinlami va axoli xonadonlari tomorqalari ekin maydonlarini sug'orishdagi ehtiyojlarii uchun foydalaniladi. Lekin

ushbu ochiq suv tarmoqlari (havzalari) aholining iste'mol ehtiyoji uchun deyarli yaroqsiz xisoblanadi.

Axolining iste'moli ehtiyoji yer osti artezian quduqfari suvlari bo'lib bu suvlar komunal gigienik talablarga ko'ra 100 S daraja xaroratda qaynatilib, iste'mol qilish maqsadga muvofiq qilib belgilangan.

Hozirgi vaqtda Paxtaobod tumanini xududi yuqorida qayd qilingan ochiq suv xavzalaridan juda ko'p sug'orish tarmoqlari qurilgan bo'lib tumanning sug'oriladigan ekin maydonlariga suv yetkazib beradi.

Paxtaobod tumanidagi Qoradaryo - Maylisoy suv xavzasidan suv oladigan magistral va xo'jaliklararo suv tarmoqlari xaqida ma'lumot berishga xarakat qilamiz.

Paxtaobod tumanida 963 km ichki sug'orish va 338.7 km xo'jaliklararo suv tarmoqlari mavjuddir.

BULAR:

1. Maylisoy kanali jami uzunligi 13.4 km bo'lib tumanning 1510 gektar ekin maydonini suv bilan ta'minlaydi.

2. Xila kanali uzunligi 11.2 km tumanning 10(5 gektar ekin maydonini suv bilan ta'minlaydi.

3. Do'stlik magistral kanali uzunligi 19.0 km bo'lib, tumanning 3025 gektar yer maydonini sug'oradi.

4. Magistra kanal 1-2 uzunligi 8 km bo'lib, 1598 gektar yerni suv bilan ta'minlaydi.

5. Ulug'nor kanali - uzunligi 0.5 km, sug'orish maydoni 31 gektar yer maydonini tashkil etadi.

6. Qo'qonqishloq 1-kanali- uzunligi 3.15 km, bo'lib sug'orish maydoni 561 gektar yer maydoniga ega.

7. Abduraxmonbek kanali - uzunligi 6.41 km bo'lib 251 gektar yerni suv bilan ta'minlaydi.

8. Sangraobod -3- kanali - uzunligi 4.6 km sug'orish maydoni 251 gektar.

9. Jiyda kanali -3- kanali - uzunligi 4.66 km sug'orish maydoni 275 gektar.

10. Tojik-2- kanali - uzunligi 5.19 km sug'orish maydoni 153 gektar.

11. Suzoq-5- kanali - uzunligi 0.95 km sug'orish maydoni 373 gektar.

12. Yumaloq-1- kanali - uzunligi 1.35 km sug'orish maydoni 160 gektar.

13. Markazariq - uzunligi 9.54 km sug'orish maydoni 156 gektar.

14. Birlashma-6- kanali - uzunligi 5.32 km sug'orish maydoni 484 gektar.

15. Birlashma-10- kanali- uzunligi 5.19 km sug'orish maydoni 360 gektar.

16. Birlashma 13 kanali - uzunligi 4.74 km sug'orish maydoni 629 gektar.

17. Tentaksoy bo'ylab - uzunligi 5.7 km sug'orish maydoni 160 gektar.

18. Yolg'izbog' - Qorasuv- uzunligi 4 km sug'orish maydoni 454 gektar.
19. Birlashma 4- kanali - uzunligi 3.99 km sug'orish maydoni 359 gektar.
20. Mozor Qorasuv - uzunligi 3.3 km sug'orish maydoni 1262 gektar.
21. Qo'yquloq kanali-uzunligi 6.4 km sug'orish maydoni 1601 gektar.
22. Tuyachi kanali - uzunligi 3.93 km sug'orish maydoni 400 gektar.
23. Shona - kanali - uzunligi 5.18 km sug'orish maydoni 251 gektar.
24. Miyan-2- kanali - 6.2 km sug'orish maydoni 400 gektar.
25. Miyan-1-kanali - uzunligi 7.96 km sug'orish maydoni 650 gektar.
26. Toshloq-uzunligi 8.06 km sug'orish maydoni 790 gektar.
27. Taqachi-uzunligi 10.6 km sug'orish maydoni 1005 gektar.
28. Madaniyat M/K- uzunligi 11.9 km sug'orish maydoni 170 gektar.
29. Miyan-uzunligi 3.5 km sug'orish maydoni 227 gektar.
30. Miyan-3 - uzunligi 4.42 km sug'orish maydoni 797 gektar.

Yuqorida keltilgan suv tarmoqlari asosan ho'jaliklar aro bo'lib, ekin maydonlarini suv bilan ta'minlaydi. Bu suv tarmoqlaridan tashqari ho'jaliklarning ichki ekin maydonlarini suv bilan ta'minlovchi ichki suv tarmoqlari ham mavjuddir. Va bu suv tarmoqlari quyidagi tablitsada qo'rsatilgan.(tablitsa-I)

Ko'rsatilgan suv xavzalari : xo'jaliklar aro va xo'jaliklarning o'zidagi ichki suv xavzadlari xaqidagi ma'lumotarga ko'ra jami sug'orish tarmoqlarining uzunligi 338.7 km sug'orish maydoni -21940 gektami tashkil etadi. Ushbu suv tarmoqlari ichida Maylisoy daryosidan hozirgi vaqtda 1281 gektar ekin maydoni sug'orilmoqda. Ushbu ochiq suv xavzasining suvlarida Qirg'iziston Respublikasi xududida radioaktiv moddalar chiqindisi qabristoni mavjud bo'lib, Maylisoy o'zani ushbu xududlardan xosil bo'lishini xisobga olib Paxtaobod tuman DSEN m (Davlat sanmtariya epidemiologiya nazorati) xodimlari tomonidan

**Paxtaobod tumanida Qoradaryo-Maylisoy Itb xisobidagi suv manbalaridan suv
oluvchi xo'jaliklararo kanallar to'g'risida**

M A ' L U M O T

	Kanallar nomi	Jami uzunligi km	Boglangan maydon mlng hektar
	Maylisoy	13,4	1510
	Xila	11,2	100
	Kuykulok	4	
	Dustlik sek	13,5	3025
	Dustlik m.k	19	

	Tashlama	7,35	
	Suv kel Mustakillik	8,8	
	M-1	1,8	
	M-1-1	7,6	
0	M-1-2	8	1598
1	Paxtaobod kanali	39,5	
2	Teshiktosh		
3	Arslonbek	0,3	
4	Ulugnor	0,5	31
5	Koragunon	2	
6	Niyozmat	9,29	
7	Eski Niyozmat	7,34	
8	Kukonkishlok -1	3,15	561
9	Abduraxmonbek	6,41	251
0	Sangraobod - 3	4,5	251
.1	Tojik - 2	5,19	153
2	Jiyda	4,66	273
3	G R - 1	5,25	90
4	Kiziiyok	3,3	87

5	Suzok- 5	0,95	373
6	Yumalok -1	1,35	160
7	Markaz arik	9,54	156
8	Birlashma - 6	5,32	484
9	Birlashma -10	5,19	368
0	Birlashma -11	2,27	58
1	Birlashma -13	4,74	629
2	Tentaksoy buylab	5,7	160
3	Elgizbog Korasuv	4	452
4	Birlashma - 3	3,12	77
5	Birlashma - 4	3,69	359
6	Dasturxonchi	5,9	75
7	Paxtakor Korasuv	3,31	70
8	Xovuskent Korasuv	3	45
9	lul Korasuv	2,2	80
0	Mozor Korasuv	3,3	1262
1	Kuykulok	6,4	1601

2	Tuyachi	3,93	400
3	Shana	5,18	250
4	Nushkan	15,5	62
5	M-2	4,9	200
6	Miyan-2	6,2	400
7	Miyan-1	7,96	650
8	Toshlok	8,06	790
9	Takachi	10,6	1005
0	Madaniyat m/k	1.1,9	170
1	Miyan-3	4,42	797
2	Miyan	3,5	227
Jami		338,7	21940

Qat'iy kunlik nazorat ostiga olingan. Bu ko'rilayotgan chora va tadbirlar Maylisoy daryosi suvidagi radioaktiv chiqindilar miqdorini nazorat qilib daryo oqib o'tuvchi xudud axolisining salomatligi, qishloq ho'jalik xayvonlari va o'simliklar dunyosini muxofaza qilishni ta'minlab kelmoqda.

Shuningdek ekin maydonlarini yetarli suv bilan ta'minlash uchun qo'shni Qozog'iston Respublikasi mahalliy xokimiyat organlari va Respublika miqyosida kelishilgan xolda katta ishlar olib borilmoqda. Paxtaobod tumanining 3.025 gektar ekin maydonlarini suv bilan ta'minlaydigan "Do'stlik kanali" stansiyasi qozog'iston Respublikasining Nojen tumani xududida joylashgan. Kanalning uzunligi 23.5 km bo'lib Qirg'iziston Respublikasi xududida joylashgan. Va kanalning 10,9 km qismini tashkil etadi. Shunga qaramasdan ushbu "Do'stlik"

kanali orqali tuman ekin maydonlarini suv bilan ta'minlash kelib chiqayotgan muammolarni xal etish orqali bartarf etilmoqda.

“Do‘stlik” kanali singari tumanni ekin maydonlarini suv bilan ta'minlovchi Paxtaobod kanali (uzunligi 45 km) suv bilan sug'orish maydoni 15000 gektami tashkil etadi. Ushbu kanalning 7 km qismi Qirg'izistondan o'tgan va shu 7 km uzunlikdagi kanal qismidan xoxlaganlaricha foydalanishlari oqibatida ko'pgina muammolarga qaramasdan suv bilan ta'minlanmoqda. Xuddi shunda axvol “Mustaqillikning 8-yilligi” nasos stansiyasi xam Qirg'iziston Respublikasi Xududida joylashgan. Mashina kanalining uzunligi 8 km bo'lib deyarli Qirg'iziston Respublikasi xududidan o'tgan. Bu nasos stansiyasi. Bu nasos stansiyasi orqali suv olish chegara va xukumat muammolari mavjud. Shuningdek Maylisoy daryosidan avllarri suvdan foydalanish O'zbekiston Respublikasi -50%, Qirg'iziston Respublikasi-50% ni tashkil etgan bo'lsa, xozirgi vaqtda Maylisoy daryosidan O'zbekiston Respublikasi-18% ni, Qirg'iziston Respublikasi-82%ni tashkil etadi. Shunga qaramasdan ekin maydonlarini suv bilan ta'minlash muammolari muvaffaqiyatli xal etilib kelinmoqda.

Yuqorida keltirilagn paxtaobod tumanini suv tarmoqlarining joylashgan xududi va sxemalari quyidagi paxtaobod tumanini suv bilan ta'minlovchi daryo, kanallar va suv tarmoqlari tuzilish tizimi berildi.


Toza ichimlik suvi — bu sodda qilib aytganda, odam salomatligiga zarar yetkazmaydigan, tarkibida aralashma bo'lmagan suv. Ayni vaqtda toza ichimlik suvi muammosi o'zining dolzarbligini yo'qotmagan. Yer shari aholisining ko'payishi jadal sur'atlarda kechayotgan bir paytda, hayotning barcha jabhalarida suvga bo'lgan ehtiyoj ham tobora oshib bormoqda. Bu esa o'z navbatida global suv inqiroziga, ya'ni chuchuk suv yetishmasligiga olib kelmoqda. Chuchuk suvning iste'mol darajasi dunyo aholisi o'sish tezligidan ikki barobar yuqori. Shu bois mutaxassislar fikricha, 2025 yilga kelib dunyo bo'yicha 3,5 milliard inson (bu Yer sharining taxminan yarim aholisi degani) toza ichimlik suviga tanqislikni sezadi. Boz ustiga hozir uning aksariyat qismi qishloq xo'jaligiga sarflanishini inobatga olsak, jahondagi milliardlab kishilar toza ichimlik suvidan bebahra qolib, ekologik va gumanitar halokatni boshdan kechirmoqda. Muammoning yana bir xavfli tomoni shundaki, bu tabiiy resurs «qora oltin»ga nisbatan, ya'ni neftdan oldinroq tugash ehtimoli yo'q emas. Bunda masala uning hajmi bilan bog'liq bo'lmay, bu borada Yer ikkala qutbida ham ulkan zaxiraga ega.

2006 yildagi ma'lumotlarga qaraganda, sayyoramizning 42 foiz aholisigina toza ichimlik suvidan foydalanib, bu raqam har yili ikki foizga qisqarib bormoqda. Suvning sifatsizligi va kam iste'mol qilinishi bilan bog'liq kasallik oqibatida har sakkiz soniyada bitta chaqaloq nobud bo'larkan. Chuchuk suv sayyoramiz umumiy suv hajmining atigi 2,5 foizini tashkil qilsa-da, bu

ko'rsatkich barcha jabhalarni, shu jumladan inson ehtiyojini juda uzoq yillar mobaynida (25 ming yil) qondirishga yetishi kerak. Muammo esa shundaki, bu zaxiraning deyarli 70 foizi Arktika va Antarktida muzliklarida to'plangan. Boshqa suv manbalari — daryo, ko'l hamda artezian quduqlari bo'lsa jahondagi chuchuk suv zaxiralarining 0,26 foizini tashkil qiladi, xolos.

Shuning uchun olimlar hozir dengiz suvini sho'rsizlantirish hamda qutb muzliklarini tashish yo'llarini izlamoqda. Shuni aytish kerakki, Rossiya Fanlar akademiyasi geografiya instituti olimlari bu borada qator muvaffaqiyatga erishdilar. Ular aysberglardan chuchuk muzni siqib chiqaradigan metodikani ishlab chiqib, amaliyotda uning ishlatilishini namoyon etishdi. Agar taklif qilingan bu texnologiya sanoatda qo'llangudek bo'lsa, u holda 24 soat ichida butun kurrai zaminga bir hafta davomida barcha jabhalarga yetadigan miqdordagi suvni ishlab chiqarish imkoni tug'iladi. Bunda olimlar dunyoning turli hududlari bo'ylab chuchuklashgan suvni yetkazib berish sistemalarini yaratishlari mumkin. Olimlarning fikricha, insoniyat boshqa suyuq mahsulot — neftni tashishni ham allaqachon o'zlashtirgani kabi suvga ham quvur va suyuq mahsulotlar tashiydigan kemalarni qo'llashi mumkinligiga ishora qilmoqda. Lekin bu masalada ekologlar fikri olimlarnikiga zid, ya'ni ekologiya sohasidagi yetuk ekspertlarning aytishicha, joriy yuz yillikning oxirlariga kelib sayyoramizdagi o'rtacha yillik harorat sel'siy darajasi bo'yicha uch gradusga ko'tariladi. Natijada muzlar erishi tezlashib, bu Al'pdagi tog' tizmasi muzliklarining yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'ladi. Qisqasi, zamonaviy ilmiy nazariyalarga asoslanib aytish mumkinki, global isish oqibatida mangu muzliklarning oldindan erishi yuz beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, insoniyat ilm-fan yutuqlari asosida toza ichimlik suvi muammosiga birgalikda yechim izlashi kerak.

Qoradaryo va Norin sxemasi



yicha

Maydoman, Chozotam sav otam a timovem quimadum to yatum ma timot otam da

izoxlashga harakat qildik. (Tablitsa-2).











II.bob. Suv havzalari va tarmoqlarini muhofaza qilishning ekologik va huquqiy asoslari

Suvni tabiatdagi, ya'ni ekologik tizimdagi o'qi va ahamiyati nihoyatda muhim bo'lib, akademik Oparinning nazariyasi bo'yicha, Yerdagi hayotning paydo bo'lishi va uning rivojlanish asosini tashkil etadi. Suv tabiatdagi modda va energiya almashinuvida, ayniqsa, o'simlik dunyosini qayta tiklanishida muhim ahamiyatga ega.

Suv resurslarini ifloslanishdan, bulg'anishdan va miqdorining kamayib ketishidan muhofaza qiliishning ekologik asosi bolib, suvni ekologik tizimning ajralmas tarkibiy qismi ekanligi, ya'ni yerdagi hayotning mavjudligini ta'minlovchi omil ekanligidir. Tabiat yaxlit tizimining ajralmas qismi bo'lgan suvning ifloslanishi, bulg'anishi, hattoki zaharlanishi va miqdorining kamayib ketishi bu tizimdagi salbiy jarayonlarni yuzaga kelishining, biologik muvozanatni hamda undagi modda va energiya almashinuvining buzilishini, o'simlik va hayvonot dunyosiga va jumladan, inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini yuzaga keltiradi. Shunday holatni yuzaga kelishning oldini olish ekotizimdagi optimal tabiiy sharoitning buzilishiga yo'l qo'ymaydi hamda biosferaning evolutsion rivojlanishini ta'minlaydi.

Shuning uchun suv resurslarini ifloslanishdan, bulg'anishdan va miqdorini kamayib ketishdan muhofaza qiliishning ekologik asosi, uni optimal tabiiy muvozanatini ta'minlash muhim ahamiyatga egadir.

Tabiatdagi barcha hodisalar vajinslarlar o'zaro bog'liq va bir- biriga aloqador bo'lib, doimo o'zgaruvchan (dinamik) muvozanat holatda bo'ladi.

Dialektik materializmning bu nizomi suv resurslariga ham to'g'ridan-to'g'ri tegishlidir, chunki tabiatdagi barcha suvlar (havodagi suv bug'lari, daryo, koi, dengiz, okean suvlari va yer osti suvlari) yagona o'zaro bog'langan va o'zgaruvchan (dinamik) muvozanatdadir. Tabiatning bu obyektiv qonunini buyuk ms olimi akademik V.I. Vemadskiy kashf etib, 1920-1930-yillarda o'z asarida «Tabiatdagi bu muvozanatning buzilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi va suv resurslaridan foydalanish qoidasi tabiatdagi barcha suvlarning birlik qonunidan kelib chiqib va uni hisobga olgan holdagi konsepsiyaga asoslanishi kerak, chunki manbadan har qanday miqdorda suvni olib ishlatilishi tabiatdagi muvozanatga ta'sir ko'rsatib, ma'lum darajadagi miqdor va sifat o'zgarishiga olib keladi», degan g'oyani ilgari surgan. Bu g'oyadan ana shunday salbiy o'zgarishni minimallashtirish ustida boradi yoki bu holatni sezilarsiz darajada bo'lishini amalga oshirish imkoniyati bo'lmasa, unda bu holatni bartaraf qilishning yuqori samaradorlik tadbirlari belgilanadi. Bu maqsadga faqat tabiatdagi muvozanatni tushunib yetgandagina erishish mumkin.

Suv resurslarini muhofaza qilish, undan turli maqsadlarda oqilona foydalanish jarayonida uzluksiz ravishda amalga oshirilishi kerak. Buni amalga oshirish masalasi suv resurslarining ifloslanishini va miqdorining kamayishini qayd etish va aybdor lami huquqiy choralar bilan jazolashdan iborat bo'libgina qolmasdan, balki tabiatdan foydalanish, jumladan, suv resurslaridan foydalanish, tabiiy hodisalarning qonuniyatlarini aniqlash asosida, suv resurslarining ifloslanishiga, miqdorining kamayishiga va behuda sarflanishiga olib keladigan tabiiy va sun'iy sabablarni va omillarning o'rnatilishi asosida amalga oshirilishidir. Shundan kelib chiqqan holda, suv resurslarini muhofaza qilish, uni shakllanish jarayonidan boshlanib, shakllangan obyektidagi (yer osti va yer usti) suv miqdorlarini va sifatini muhofaza qilishning texnik tadbirlarini ishlab chiqishdan iborat bo'lishi kerak.

Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqqan holda, suv resurslarini muhofaza qilish deb, suv resurslarining tabiiy va sun'iy omillar ta'sirida ifloslanishi, bulg'anishi va miqdorining kamayib ketishini hamda suvning behuda va befoyda sarfini bartaraf qilishga qaratilgan ilmiy asoslangan huquqiy, tashkiliy, ijtimoiy, texnikaviy va iqtisodiy tadbirlar tizimiga aytiladi.

Tabiat qonuniyatlarini o'rganish asosida suv resurslarini muhofaza qilish vazifasiga quyidagilar kiradi:

1. Suv resurslarining ifloslanishini, uni shakllanish jarayonida oldini olish chora-tadbirlarini uzluksiz ravishda amalga oshirish, ya'ni atmosfera havosi va tuproq qatlamining ifloslanishini oldini olish chora-tadbirlarini to'liq miqyosda amalga oshirish.

2. Suvni ifloslantiruvchi o'choqlarining paydo bo'lishini oldini oluvchi profilaktik tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish.

3. Suvdan oqilona foydalanish nuqtayi nazaridan undan foydalanishni to'g'ri rejalashtirish.

Bularni amalga oshirish uchun albatta, ilmiy asos va yagona qat'iy siyosat bo'lishi shart.

Adir iqlimli mintaqada suv resurslaridan oqilona foydalanishning yagona qat'iy siyosati bo'lib - suvning har tomchisi hisobga olingan bo'lsa, ilmiy asosi - tabiatdagi (yer usti, yer osti va atmosfera yog'in) suvlarning birlik qonunidir.

Suv resurslarini muhofaza qilishning huquqiy samaradorligini oshirishni ta'minlash ko'p jihatdan bu ishni amalga oshirishning huquqiy asosiga O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, bu masalaga jiddiy e'tibor qaratila boshlandi. Tabiatni va jumladan, suv resurslarini muhofaza qilishning huquqiy asosini yaratishga va uni takomillashtirishga katta e'tibor berilayapti. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkita moddasi ana shu masalaga bag'ishlangan, jumladan:"

50-modda, Fuqarolar tabiiy atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar.

55-modda. Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida bir qator qonunlar va me'yoriy hujjatlar majmuasi tayyorlangan: «Suv va suvdan foydalanish», «Tabiatni muhofaza qilish» qonunlari va bir qator me'yoriy hujjatlar shular jumlasidandir. «Suv va suvdan foydalanish» Qonunida suvni muhofaza qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, qonunning XIX bobida oqindi suvlarni oqizish uchun suv obyektlaridan foydalanish masalasi keltirilgan bo'lib, uning quyidagi moddasida chiqindi-oqova suvlar to'g'risida ma'lumot berilgan.

73-modda. Oqindi suvlarni oqizish uchun suv obyektlaridan foydalanishga ruxsat beruvchi idoralar. Sanoat, kommunal-maishiy, zovur suvlarini va boshqa oqindi suvlarni oqizish uchun suv obyektlaridan foydalanishga qonunlarga muvofiq hamda tabiatni muhofaza qilish, suv xo'jaligi organlarining davlat sanitariya nazorati, qonunchilik nazorati davlat organlari geologiya va mineral resurslar organlari bilan kelishib bergan ruxsatiga binoan yo'l qo'yilishi mumkin. Ruxsat suv obyektlaridan oqindi suvlarni oqizish uchun foydalanish zarurati va imkoniyatlarini asoslab beruvchi hujjatlariga binoan beriladi, deyilgan.

74-modda. Suv obyektlariga oqindi suvlarni oqizishga yo'l qo'yish shartlari.

Suv obyektlariga oqindi suvlarni oqizishga suv obyekti tarkibidagi ifloslovchi moddalarning belgilab qo'yilgan me'yorlardan oshib ketishiga yoi qo'ymaslik sharti bilan va suvdan foydalanuvchi bunday oqindi suvlarni tabiatni muhofaza qilish va sanitariya nazorati organlari tomonidan belgilab qo'yilgan daraja yetkazib tozalab berish sharti bilangina yoi qo'yiladi.

Agar mazkur talablar buzilayotgan boisa, tabiatni muhofaza qilish va sanitariya nazorati organlari oqindi suvlarni oqizishni cheklab, to'xtatib yoki taqiqlab qo'yishlari, hattoki ayrim sanoat qurilmalarini, sexlar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalarning faoliyatini to'xtatib qo'yishlari lozim. Aholining sog'ligiga xatarli J hollarda, oqindi suvlarni oqizish to'xtatilib hattoki, ishlab chiqarish obyektlaridan va boshqa obyektlardan foydalanish to'xtatib qo'yilishi lozim, deyilgan.

2.1. Suv resurslarini muhofaza qilish tadbirlari

Bu bo'limda suv resurslarining ifloslanishi va miqdorini belgilangan vaqtdan ilgari kamayib ketishini va befoyda sarflanishini bartaraf qiluvchi suvni muhofaza qilish tadbirlari majmuasi ishlab chiqiladi. Suv resurslari sanoatning chiqindi suvlari bilan ifloslanishini bartaraf qilish uchun sanoatni suv bilan ta'minlash tizimida suvdan qayta (yopiq) tizimda foydalanishni va "qoldiqlar"ni zararsizlantirish tadbirlarini maksimal tatbiq etish ko'zda tutilishi kerak. Oziq- ovqat sanoatining ifloslangan suvlari mahalliy tozalash inshootlaridan o'tkazilgandan keyin kanalizatsiya shoxobchasiga tashlanishi lozim. Kommunal- maishiy xo'jalik chiqindi suvlari tozalash inshootlaridan o'tkazilgandan keyin sug'orishda yoki sanoatni suv bilan ta'minlashda foydalanishi kerak.

Kommunal-maishiy xo'jalik va chorvachilik majmualarining chiqindi suvlarini tashqariga chiqarish uchun quyidagilarni tavsiya qilish mumkin;

- aholi yashash joylarida va chorvachilik majmualarida yangi kanalizatsiya shoxobchasini qurish yoki borlarini qayta tiklash;

- kanalizatsiya chiqindi suvlarini (mexanik, kimyoviy, biologik va boshqa tozalash usullari) tozalash va ulardan qayta foydalanish.

Sug'orish dalalaridan chiqayotgan zovur suvlari daryo va yer osti suvlarini ifloslantiruvchi asosiy manbadir. Ularni sug'orish dalalari tashqarisiga chiqarish hududning qaytmas suv sarfi miqdorini oshishiga olib keladi. Shuning uchun ularni saqlash va qayta foydalanish tadbirlarini ishlab chiqish zarur.

Suv xo'jaligi majmuasi qatnashuvchilarining chiqindi va drenaj suvlarini tozalash va qayta foydalanish tavsiyalarini ishlab chiqish uchun shu suvlarning miqdorini (W , mln.m³ yil) va sifatini (S , gV) ifodalovchi jadval tuziladi. Chiqindi va zovur suvlarining sifati, maydoni tibbiy drenaj langanligi va hududning tuproq- meliorativ sharoiti bilan bog'liq holda, bu suvlardan sug'orishda va texnik suv bilan ta'minlashda foydalanish bo'yicha tavsiyalar beriladi yoki ularning tozalanishini, qayta foydalanishini va bartaraf qilishning boshqa usullari beriladi. Qishloq xo'jaligida o'g'itlardan va zararkunandalarga qarshi zaharli kimyoviy moddalardan foydalanish suv resurslarining sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun qishloq xo'jalik zararkunandalari bilan kurashish uchun ishlab chiqilgan biologik tavsiyalarga muvofiq ularning qo'llanishini me'yorlashga va sharoitlariga qafiy rioya qilishga ko'rsatma berilishi kerak.

Bugungi kunda tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda nomutanosiblik insoniyat tabiatdan foydalanishda tabiat qonunlariga emas, aksincha, shaxsiy manfaatlariga asoslanib

faoliyat ko'rsatishi oqibatida tabiiy muvozanatning sezilarli darajada buzilgani, ya'ni dunyoning turli burchaklarida tabiiy ofatlar- suv toshqinlari, zilzilalar, o'rmon yong'inlari va boshqa shu kabi talofatlarning ro'y berayotgani hech kimga sir emas. Inson tabiiy muhitga ta'sir etar ekan, uning o'zi ham "aks ta'sir"ga duch kelmoqda. Bularning barchasi endilikda insonning o'ziga va uning sog'lom tabiiy muhitda yashashiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tabiat boyliklaridan ekologik omillar hisobga olinmagan holda foydalanish tufayli atrof-muhitni ifloslantiruvchi sanoat va maishiy chiqindilarning hajmi keskin ortib borayotgani insonning tabiatga ko'rsatayotgan salbiy ta'sirini yanda kuchaytirmoqda. Ma'lumotlarga Qaraganda, so'nggi 50 yil ichida yer yuzi axrlisi deyarli uch martaga o'sgan, ro'yhatga olingan transport vositalarining soni 10 martaga ko'paygan, elektr stansiyalari quvvati 21 martaga oshgan, neft mahsulotlaridan foydalanish 7 martaga, toshko'mirdan foydalanish 3,6 martaga, tabiiy gazdan foydalanish 15 martaga ortgan, shuningdek, g'alla yetishtirish 4 baravardan ko'proq, yog'och ishlab chiqarish 14 martaga, alyuminiy ishlab chiqarish 15 baravarga, qog'ozga bo'lgan talab 5 baravarga hamda so'nggi 40 yil davomida baliq, ovlash yiliga 18 mln. tonnadan 100 mln. tonnaga oshgan.

Achinarli tomoni shundaki, bugungi kunda sayyoramiz aholisining har oltinchisi ekologik nomaqbul hudud da yashamoqda. Butun sayyora bo'ylab har uninchi katta daryo bir necha oy mobaynida dengizgacha etib bormaydi. 1 mlrd. aholi sanitariya talablariga javob beradigan ichimlik suviga ega emas. Yana bir tashvishli holat, mutaxassislarning ta'kidlashicha, 2025 yilga borib dunyodagi 2 mlrd. aholining suv tanqisligidan aziyat chekish ehtimoli bor. Xar yili yer yuzidan 13 mln. gektar o'rmonzor yo'qolib ketmoqda. 2050 yilga borib hayvonot turlarining 25 foizining yo'qolib ketishi xavfi mavjud. Bu esa biologik turlarning tabiiy suratlardan 100 marotaba tezroq, tugashiga olib keladi.

Sunggi 15 yil davomida urtacha xarorat eng yukori kursatkichga yetdi. Shuni alox;i-da ta'kidlash kerakki, mintak,amizda joy-lashgan Orol dengizining kurishi insoni-yat tarixidagi eng yirik ekologik fojea-lardan biri hisoblanadi.

Orol dengizi — sayyoramizdagi eng qadimiy yopiq, suv havzalaridan biri va u yirikligi jihatidan dunyoda to'rtinchi o'rinda bo'lib, o'zining boy tabiiy zaxhiralari bilan mashxur edi. Orol va Orolbo'yi suv xavzalarida 38 turdagi baliq, bo'lib, yiliga 30 ming tonnagacha baliq, ovlangan. Amudaryo deltasi florasi tarkibida 638 turdagi turli usimliklar mavjudligi xam ushbu mintaqaning naqadar boy bioxilma-xillikka ega bo'lganligidan yorqin dalolatdir. Bugun orol dengizining hajmi 13 barobarga, maydoni 7 barobarga qisqardi. Suv satxi 26 metrqa pasaydi, suv chegarasi yuzlab kilometrga chekindi.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo davlatlari aholisining suvga bo'lgan talabi transche-garaviy daryolar —Amudaryo va Sirdaryo xisobiga qondiriladi. Mutaxassislarning bashorat qilishicha

iqlim o'zgarishi, global xaroratning oshishi tufayli Amudaryo va Sirdaryoning suv zaxirasi manbai bo'lgan muzliklar 2015 yilga borib 15-20 foizga kamayishi mumkin. Bu esa mintaqamizda suv ta'minotining 20 foizgacha qisqarishiga olib keladi.

Orol dengizining qurigan qismida maydoni taxminan 5,5 mln. gektarli yangi cho'l — Orolqum, tuz bilan qoplangan keng saxrolar paydo bo'ldi. Undan yuzlab kilometrga millionlab tonna tuz, chang va qumlarni tarqatuvchi chang va tuzli dovullar ko'tariladi.

Orolbo'yi cho'llanishi yer resurslarining degradasiyasiga, tabiiy yaylovlar va pichanzorlar sifatining yomonlashuviga sabab bo'lmoqda, tuproqning sho'rlanishi faollashib, u yil sayin yangidan-yangi maydonlarni qamrab olmoqda. Ayni paytda Janubiy Orolbo'yida ko'plab kichik ko'llar sayozlash-di yoki butunlay qurib qoldi. Bu esa uz navbatida 800 ming gektar maydondagi mavjud bo'tazor va to'qayzorlarning 90 foiz, ular bilan birga bu yerda kunim topgan jonivorlarning yo'qolishiga olib keldi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, jahon mamlakatlarida maishiy chiqindilar xajmining o'sishi ekologik barqarorlikka jiddiy salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida qattiq, maishiy chiqindilar salmog'i aholi jon boshiga har yili 1 foizga ortib bormoqda. Xozirda dunyo bo'yicha maishiy chiqindilarning har yilgi miqdori 400 million tonnani tashkil qilib, shulardan 80 foizi har xil turli — murakkab tizimlardan tortib oddiy chiqindixonalarda ko'mish bilan zararsizlantiriladi.

Inson xo'jalik faoliyati natijasida atrof-muhitga bir necha yuz hil chiqindilar chiqariladi. Bugungi kunda ularning atigi bir necha turlaridan: metall, plastmassa, qog'oz, shisha, yog'ochlardan ikkilamchi xom ashyo sifatida foydalanilmoqda, xolos. Ma'lumo larga ko'ra, tabiiy sharoitda po'lat idishlar 100 yil, alyuminiy idishlar 80, plastik idishlar 50- 80 yil, polietilen xaltalar 10-20 yil, qog'oz idishlar 5 yil ichida yemiriladi. Rezina buyumlar va shisha idishlar esa tabiiy yo'l bilan yo'qolib ketmaydi. Keyingi yillarda dunyoning ayrim mamlakatlarda "chiqindi bozori" o'z kqlochini yanada kengroq, yoymoqda.

Atrof-muhitning bir qismi bo'lgan atmosfera — yer sharini o'rab olgan xavo qatlami, tirik mavjudot hamda boshqa tabiat boyliklarining mutanosibligi-Shuni ta'minlovchi, qolaversa, insoniyat va barcha tirik mavjudotlarga xayot baxsh etuvchi tabiiy manba xisoblanadi. Shuning uchun xam u o'zining xususiyati bilan boshqa tabiat ob'ektlaridan ajralib turadi. Atmosferaning yuqori qatlamlaridagi qisqa to'lqinli ultrabinafsha nurlanishdan biologik xayotni ximoya qiluvchi ozon qatlamining buzilishi asosan an tropogen o'zgarishlar bilan bogliqdir. Xozirgi kunda yiliga dunyoda xar hil turdagi yoqilg'i va yonilg'ilarning yoqilishi tufayli 10 milliard tonnadan ortiq, kislorod sarflanmokda.

Ma'lumki, har qanday davlatning rivojlanishida, aholi turmush farovonligini oshirib borishda uchta tamoyilga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy ximoya va nixoyat, ekologik xavfsizlikdir.

Bu borada mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, kuchli, uzoqni ko'zlagan siyosat amalga oshirilmoqda. Yuqoridagi uchta tamoyil O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy rivojlanishiga asos qilib olingan. Mamlakatimizda ekologik xavfsizlikka, bu hafsizlikka taxdid solayotgan va endilikda global muammoga aylangan Orol va Orolbuyi ekologik fojiasi oqibatlarini bartaraf etishga, transchegaraviy daryolar suvidan oqilona foydalanish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, O'zbekistan Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan Orolbo'yi genofondini muhofaza qilish xayriya jamoat fondi tashkil etildi. Orol va Orolbo'yi muammosini xal qilishda O'rta Osiyo davlatlari hamkorligi 1993 yili Orolni qutkarish xalqaro jamg'armasining (OKXJ) tashkil etilishida namoyon bo'ldi. Uning doirasida Orol dengizi xavzasi Dasturi xayotga tatbiq, etildi.

Mintaqada ekologik muvozanatning buzilishi oqibatlarini yumshatish maqsadida Amudaryo deltasida kichik suv xavzalarini yaratish, to'qayzorlarni saqab qolish, Orolbo'yining olis axoli yashash joylarida quyosh energiyasidan foydalanishga qaratilgan bir qator xalqaro va davlatlararo loyixalar amalga oshirilmoqda.

Orol dengizining qurigan tubidagi saksovulzorlar barpo etilgan xududlarga va baliqchilikni rivojlantirish, ekologik fojia oqibatlarini yumshatish, qurigan dengiz tubidan ko'tariladigan tuz bo'ronlarini oldini olish, mikroiklim yaratish maqsadida Saribas, Jaltirbas va boshqa sun'iy suv xavzalari tashkil etildi.

Shuningdek, davlatimiz tomonidan ekologik fojia oqibatlarini yumshatish, aholi salomatligini muxofaza qilish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan bir qatorda istiiqlol respublikamizda atrof-muxitni muxofaza qilish, tabiiy resurlardan oqilona foydalanish soxasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi mustahkam, yaxlit qonunchilik bazasi yaratildi. Xuquqiy bazaning poydevori bo'lgan asosiy Qomusimizning 55-moddasida "Er, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va xayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muxofazasidadir" deya alohida ta'kidlangan.

Ushbu Konstitusiyaviy me'yorning uzviy davomi sifatida "Tabiatni muxofaza qilish to'g'risida"gi, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi, "Chiqindilar to'g'risida"gi, "O'simlik dunyosini muxofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "Xayvonot dunyosini muxofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi va boshqa qator qonunlar

qabul qilindi. Ushbu qonunlar atrof-muxitni, tabiiy resurslarni xuquqiy jixatdanmuxofaza qilishda muxim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda dunyoda kechayotgan global ekologik muammolarni xal etishda xo'jalik faoliyatiga faqat resurs tejovchi va ekologik toza texnologiyalarni joriy qilish, tabiatni muxofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish yoki soxaga oid qonunchilikni takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlarning uzigina ushbu soxadagi muammolarni xal etishda yetarli emas. Bu borada axoli, ayniqsa, yoshlarning ekologik madaniyatini yuksaltirish, har bir insonda atrof-muxitga extiyotkorona munosabatda bo'lish, mamlakatning noyob tabiatini kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylash xissini shakllantirish asosiy omillardandir.

Insonning tabiatga noto'g'i ta'sir ko'rsatishi natijasida yuzaga keladigan salbiy xolatlarining oldini olishda ekologik ta'lim-tarbiyaning o'rni nixoyatda muhim. Xozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biri fan-texnika yutuqliar asosi axoli o'rtasida ekologik ta'lim-tarbiya va madaniyatga oid bilimlarni oshirish yo'li bilan tabiat muxofazasini ta'minlashning turli chora-tadbirlarini ishlab chiqishdi Ekologik ta'lim-tarbiya — insonning tabiatdan ongli ravishda foydalanishga, xalqimizning tabiatga nisbatan e'tibor bilan qaraydigan urf-odatlari, an'analari asosida yoshlarni tarbiyalash, ular ongida tabiat, uning boyliklariga mexr-muxabbat uyg'otish, ularni tejamkorlikka va tabiiy boyliklarni asrab-avaylashga o'rgatishdan iboratdir.

Yashil olam inson salomatligini saqlashda nixoyatda katta ahamiyatga ega ekanligini, shuning uchun ham xar bir ukuvchi uz maktabi, xovlisi, ko'cha va xiyobonlarni ko'klam-yurlashtirish ishida faol qatnashishi, ko'chat o'tkazib, ularni parvarish qilish orqali atrof-muhitning musaffo bo'lishiga xissa qo'shishi kerakligi tushuntirilishi lozim.

Tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish, ularni muxofaza qilish masalalarini ongli ravishda hal etish uchun oila, maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab bolalarda tabiat ne'matlariga mexr-muxabbat ruxini shakllantirish, ekologiyaga oid bilimlarni ularning shuuriga singdirish lozim.

Toki ular kelajakda atrof-muxitni muxofaza qila oladigan va tabiiy boyliklardan tabiatga zarar keltirmagan holda foydalanadigan bo'lib voyaga yetishsin.

Ta'kidlash joizki, ekologik ta'lim-tarbiya jarayonlarini eng avvalo oiladan boshlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ota-onalar farzandlariga ilk so'zlar va tushunchalarni o'rgata boshlaganlarida, suv, o'simliklar va non tushunchalarini, ularni qadrlash kerakligini, suvsiz o'simlik unmasligini, o'simlik unmasa non bo'lmasligini ular ongiga singdirib borish lozim. Shu bilan birga, farzandlariga sog'lom bo'lish uchun gigiena qoidalariga rioya qilish shartligini ham muntazam uqdirib borishlari maqsadga muvofiqdir. Bu esa oilada sog'lom turmush tarzining

shakllanishiga olib keladi. Mahallapar ham ekologik ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos o'choqlaridan biridir. Azaliy 13 qadriyatlarimiz xisoblangan umumxalq, xasharlarini o'tkazish va unga yoshlarni ko'proq jalb etish ularning tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatini shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda yoshlar ishtirokida ekologik mavzularda uchrashuvlar, tanlovlar tashkil etish, ekologik adabiyotlarni ko'paytirish, ekologik sayoxatlar uyushtirish, ommaviy axborot vositalarida targ'ibot va tashviqot ishlarini kuchaytirish lozim. Bu esa o'z navbatida yoshlarda tabiat uchun shaxsiy javobgarlik xususiyatlarini shakllantirishga xizmat qilish barobarida, yoshlarda ekologik xavf-xatarlarning oldini olishga qaratilgan burch xissiyotini kuchaytiradi.

Suvdan yaqinda bo'shagan qiyom yassi tekislikdan iborat bo'lganligi sababli grunt suvlarining oqimi ham juda sekin, ba'zan joylarda amalda yo'q darajada.

Grunt suvi asosiy qismining buglanishga sarf bo'lishi natijasida tuproqda katta miqdorda tuz to'planib bormoqda. Grunt suvlari satxising yer betiga yaqinligi (1-3 m) va nixoyatda sho'rli (xar litr suvda 30-60 g) tufayli bir yillik sho'ralar keng tarqalgan, dengiz qirg'og'iga ya qinlashgan sari o'simlik siyraklashib ba'zan butunlay yo'qoladi. Sababi tuproqda tuz nixoyatda bisyor.

Orolning qurigan qismidan qum, chang va tuz zarrachalari shamol ta'sirida turli tomonlarga to'zimoqda. Bu borada mutaxassislar tomonidan ko'plab xisob-kitoblar qilingan, ammo ularning deyarli barchasi bir-birlariga mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Binobarin shu yo'nalishda yagona tadqiqot usuli va dasturi asosida ilmiy tekshirishlarning amalga oshirilishi zarar bo'lmoqda. O'zbekistonlik mutaxassislarning (R.Razzosov) ta'kidlashicha, Mo'ynoq, atrofida xar gal maydonga 1242 kg tuz yog'lsa, Nukus atrofida 100-150 kg va unda kamroqni tashkil qiladi.

Ammo bu tuzlarning hammasi Orolning qurigan qismidan kelmay, bir qismi atrofdagi sho'rxoqlardan ham uchib kelishi mumkin. Shuning uchun bu borada dalada aniq kuzatish ishlarni olib borish, qaysi joydan qancha tuz kelayotganini aniqlash muhim amaliy ahamiyatga molik. Qozog'istonlik mutaxassislar (O.E.Semenov) ning asoslashicha, Orol tuz manbaidan yiliga o'rtacha 1,17 mln. tuzli moddalar atrof muhitga shamol yordamida to'zimoqda. Koinotdan olingan suratlarni Orol xavzasi qismidagilarini taxlil qilish natijalariga ko'ra, Orol dan ko'tarilgan tuzli changlarning tarqalishi o'rtacha 250-400 km dan oshmaydi.

Kollektorzovur suvlari (KZS) Orol dengizi xavzasida 60-yillardan e'tiboran orta bordi, bu hol ekinzorlarga beriladigan suv me'yorining ko'payishi bilan bog'liq bo'lgan (4- jadval). 70- yillarda KZS najmi 60-yillarga nisbatan qariyb marta ko'p bo'lishi Mirzacho'l, Qarshi cho'li, Sherobod, Jizzax, Markaziy Farina, Vaxsh, Qoraqum kanali mintaqasi va boshqa massivlar o'zlashtirilishi munosabati bilan bir tomondan suv manbalaridan ko'p miqdorda suv

olish va ikkinchi tomondan yerdan foydalanish koeffisientining (EFK) ortib borishi (avvallari 0,2-0,6 bo'lgan bo'lsa, endilikda 0,8-0,9 ga yetdi) tufayli grunt suvlari satxi tezkorlik bilan yangi vohalarda ko'tarilib bordi. Yer betiga yaqin bo'lgan grunt suvlarini chetga chiqarish maksadida zich (chunonchi, Mirzacho'lda xar gal maydonda 60-70 m uzunlikda) zovur tarmoqlari bunyod etildi, joylarda (Mirzachul, Karshi cho'li, Sherobod cho'li, Markaziy Fargona) tik zovlar qurildi. Bu hol tuproqni yoppasiga sho'rlanishdan saqlab qolish uchun amalga oshirildi.

KZS ni bir yillik okimi buton Orol xavzasida endilikda o'rtacha 33 kmni tashkil etadi, shundan 17 km Amudaryo, 13 km Sirdaryo, 3 km kichik daryo havzalarida vujudga keladi, 20 km zovur suvi Amudaryo va Sirdaryoga qaytadan tashlanadi, qolgan qismi Koraqum va Qizilqumdagi bekik, botiqlaridagi ko'llarga yuboriladi. To'g'ri, KZS ni daryolarga qaytadan tashlanishi ularning suv xajmini oshiradi, boshqacha aytganda suvni tejashga erishiladi, ko'llarga tashlangan suv aslida bug'lanishga sarf bo'ladi. Bu bir xisobdan tengri.KZS suvlarining 60-yillardan boshlab daryolarga tashlanishi ularni suvini asta-sekin ifloslanishiga olib keldi. Yaqin-yaqin va vaqtlargacha daryo suvlari asosiy ichimlik manbai bo'lib kelgan. Endilikda, Sirdaryo suvini

Uchqo'rgondan, Amudaryo suvini Termiz shahridan quyida ichimlik sifatida foydalanib bo'lmaydi.

Oqava suvlar daryo va yer osti suvlarini bo'lgaydi. Ularga sanoat korxonalarining ishlatib bo'lingan suvlari, shahar va qishloq, aholi punktlarining kommunal-maishiy suvlari kiradi. O'zbekistonda yiliga o'rtacha 5,5 km hajmda sanoat korxonalarining oqava suvlari vujudga keladi, shundan 80% (4,4 km) issiqlik energetikasi xissasiga to'g'ri keladi. Sanoat oqava suvlari uziga xos chiqindilar bilan ifloslangan, bu hol u yoki bu ishlab chiqarish bilan bog'liq. Bularga og'ir metallarning tuzlari, sianit, margimush, magniy, ftor, formal' degidlar, neft maxsulotlari va boshqalar kiradi. Tozalanmagan sanoat oqava suvlari hajmi yiliga 200-215 mln.mni tashkil qiladi. 1996 yilda elektroenergetika

korxonalari jami bo'lib 100 mln. m dan ko'p oqava suvni tashlagan, uning yarmi mutlaqo tozalanmagan edi. Kimyo sanoati korxonalarida aylanma suv tizimida 1,1 -1,2 km suv ishlatilgan holda yiliga qariyb 200 mln.m oqava suvni tozalamasdan daryo suvlariga tashlaydi. Kimyo sanoatida suv eng ko'p iste'mol qiladigan korxona "Elektrkimyosanoat" hisoblanadi, uning tarkibida "Kapralktam" zavodi mavjud. Ushbu korxonada 140 mln.m suv ishlatilgan holda uning 135 mln.m qismi ochiq, xavzaga tashlanadi (Chirchiq daryosi), shundan 110 t. dan ziyod qismi bugunlay tozalanmaydi.

Suvdan foydalanishda ikki xususiyatga alohida ahamiyat berish darkor: 1) omilkorlik, ya'ni) ilmiy assoslangan; 2) sifati buzilishiga yo'l qo'ymaslik. Omilkorlik bilan suvdan

foydalanish avvalo tejamkorlikka undaydi, suv nechog'li oqilona foydalanilsa uning foydalanish miqyosi Shuncha kengayadi. Chunki, ortgan ob-xayot evaziga qo'shimcha mshsulot ishlab chiqarish imkoni tug'iladi. Lekin tejamkorlik u yoki bu soxada turlicha bo'lishi mumkin. Xususan sug'oriladigan dehqonchilikda u majmuali xarakterga ega, chunonchi, avvalo sug'orish me'yori, filtrasiya (erga nam singishi), buglanish, sugorish texnikasini takomillashtirish kabi elementlarni o'z ichiga oladi. Sug'orma dehqonchilikda

Sug'orish me'yorini muntazam targ'ibga solib borish natijasida talay suvni tejab qolisha erishiladi.

70-yillarda Bo'yi Amudaryoda guzani sug'orish me'yori har ga maydonda 18-21 ming m ni tashkil qilgan. Hozirda bu raqam 13-14 ming m gacha qisqardi, respublika bo'yicha o'rtacha 12,3 ming m ni (1996 y. 1 tanlash siladi, 20 0 yil arafasila nuyurish me'yori 11,5 ming m gacha kamayishi kutilmoqda.

Suvning bir kisti zaminga singishi tufayli suv manbalaridan olinayotgan namlikning foydali koefisienta kamligicha qolib ketmoqda. Gap shundaki, suv tizimlarida va suvurish maydonlarida suvning katta miqdordagi qismi gruntta siziladi. O'zbekistonda magistral va xo'jaliklararo sug'orish tarmoqlarining foydali ta'sir koefisienta 0,81, xo'jaliklar ichidagi tarmoqlarniki esa 0,74, sug'orish tarmoq, chariniki 0,59, jami o'rtacha 0,64 ga teng. Binobarin; 36% suv amalda foydalanilmaydi.

Chunki, ularning asosiy qismi yerga shimilib o'tadi. Agar xo'jaliklar ichidagi sug'orish tarmoqlarining o'zanlarini suv o'tkazmaydigan material bilan iloji boricha ko'proq, qismini qoplashga erishilsa ularning foydali ta'sir koefisientani 0,85 gacha yetkazish mumkin bo'ladi. Bu ancha suvni tejashga imkon beradi.

Egat oralab sug'orish mamlakatda eskidan foydalanib kelinadi. Bu sug'orish usulining bir qator afzalliklari bilan birga, kamchiliklari ham mavjud. Avvalo, sug'oriladigan suvning o'rtacha 25-36% (joylarda 60% gacha) qismi yerga singadi, yerning tekisligi talabga nixoyatda javob berishi zarur, ma'lum qiyalik saqlanishi e'tiborga olinadi. Shu jihatdan Qaraganda egat oralab sug'orishni joyning tabiiy-meliorativ sharoitlarini hisobga olib yomg'irlatib, tuproq ostidan, tomchilatab sug'orish usullarini kallash katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu usudlarni aralash natijasida ekinzorlarni bir yula katta hududlarda sug'orishga erishiladi. Shuningdek, sug'orish me'yori kamida 50-60 % ga qisqaradi, xosildorlik oshadi, begona ularning usishi juda ham kamayadi, grunt suvlarining satxi ko'tarilmaydi va boshq. O'zbekistonda tomchilatab sug'orish (hozirda bu usulda 4,5 ming ga maydonda), yomg'irlatib va tuproq ostidan sug'orish usullari qo'llanilmoqda, lekin hali ular keng miqyosda amalga

oshirilmayapta. Sababi ularni qo'llash uchun katta miqdorda jamg'arma va turli maxsus uskunalar zarur, bu usullar sekin-astalik bilan amalga oshirib boriladi.

Suvni tejashning yana bir yuli eskidan sug'orib kelinayotgan vohalarda mavjud sug'orish va KZTlarni yangi muxandislik loyixalari asosida qayta qurishdir. Respublikada 1940 ming ga maydonda mavjud gidromeliyativ tarmoqlarni, 480 ming ga maydonda KZT karta qurish va yangilarini ishga tushirish, 960 ming ga maydonda kapital tekislash ishlarini amalga oshirish! zarur, Tejalgan suv evaziga hozirgi sug'orilayotgan maydonning 4,92 mln.ga yetkazish imkoniyati vujudga keladi.

Sug'orish me'yori va suvning zaminga singish hajmi kamayishi bilan grunt suvlarining sathi xam tushib boradi. Chunki, ularni to'yinish manbai asosan ushbu suv toifalariga bog'liq. Grunt suvlar satx uyuning pasayishi KZT oqimining ham kamayishiga ta'sir etadi. Binobarin, daryolar va botiqlarga tashlanadigan suvlar miqdori ham borgan sari kamayib boradi. Darvoqe, suvdan omilkorlik bilan foydalanish tamoyili ustuvorlikka ega bo'ladi. Tabiiy suv xavzalari va suv omborlari, irrigasiya tarmoqlariga zovur, oqava, maishiy suv oqimlarini tashlashni iloji boricha kamaytirib borish eng dolzarb masala. Buning uchun sug'oriladigan yerlarda vujudga kelayotgan KZS hajmini kamaytirish ustida amaliy ishlarni boshlash darkor. Gap I sug'orish me'yorini qadamba-qadam kamaytirish ustida bormoqda, har bir joyning (suyurish kartasi) meliorativ xususiyatlarini e'tiborga olgan holda sug'orish me'yorini belgilash va 1 suyurish texnikasini takomillashtirish ayni muddao, shuningdek, irrigasiya shoxobchalarini (ayniqsa, xo'jaliklar ichidagi tarmoqdaryni) suv o'tkazmaydigan materiallar bilan qoplash kechiktirib bo'lmaydigan vazifa hisoblanadi.

X U L O S A

1. Hozirgi davrda suv resurslarida mukammal foydalanish va uni muhofaza qilish muammosi asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki, aholi sonini ortishi qishloq ho'jaligi va sanoatning rivojlanishi bilan bog'liq toza-chuchuk suv etishmovchiligi hisoblanadi.
2. Markaziy Osiyo shuningdek O'zbekiston Respublikasi keskin o'zgaruvchan issiq haroratli mintaqaga joylashganligi, bo'lib asosan ikkita trans daryo Amudaryo va Sirdaryo suv xavzalaridan foydalaniladi.
3. Paxtaobod tumani Andijon viloyatining agrar qishloq ho'jaligi mahsulotlari etishtirishga moslashgan bo'lib, asosan sug'oriladigan dehqonchilik erlaridan foydalanadi.
4. Paxtaobod tumani aholi va qishloq ho'jaligi uchun kerakli suvlarni Qoradaryo-Maylisoy suv xavzalaridan oladi va tuman xalq ho'jaligining turli tarmoqlarida foydalaniladi.
5. Aholi tumandagi mavjud suv xavzalari va tarmoqlari suvini qishloq ho'jalik ekinlari etishtirishda foydalaniladi.
6. Ichimlik suvlari manbai asosan er osti chuchuk suvlari bo'lib, iste'mol qilish uchun 100°C darajada qaynatilib foydalaniladi va saanitariya gigiena nazorat qilinadi.
7. Tuman hududidagi suv xavzalarini ifloslofchi yirik qishloq ho'jalik va sanoat korxonalari chiqindilari bilan deyarli ifloslanmaydi.
8. Tuman hududidan oqib o'tuvchi Qirg'izistonning Maylisoy daryosi suvining radioaktivlik holati doimiy nazorat qiluvchi sanitariya-gigiyenik nazoratdan o'tkaziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov.I.A -“O‘zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. - T.O‘zbekiston 1997 y 116-137 b
2. Asanov.G, Nabixonov.M, Sodiqov.I - “O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” T.O‘qituvchi” 1994 y
3. Baratov T O‘zbekiston tabiiy geografiyasi” T. “O‘qituvchi” 1996 y
4. Baratov T -“Tabiatni muhofaza qilish va o‘zgartirish” T. “O‘qituvchi” 1970 y
5. Valiyev X, Murodov Sh, Xolboyev B. -Suv resurslaridan mukammal foydalanish va muhofaza qilish. T. “Fan va texnologiya” 2010
6. Jo’ra Qo’ldosh- “Mustaqillik nuri bilan”, “Andijon” 1996 y 140 bet
7. Zoxidov A.Z-“Vodoxozytsvenniye sistemi Sredney Aziya” T “Fan” 1971 y
8. Lvoviz M/I - “Voda Ijizn” -M. “Misl” 1986 y 237 c
9. Lvoviz M.I - “Miroviye vedniye resursi I ix budushee” M. “Misl” 1974 g 447 c
10. Mahmudova I, Shahobiddinov A-“ Qishloqlar va yaylovlar suv ta'minoti” T.Toshken. Irigatsiya va q/x meliorasiya ins 2002 y 136 b
11. Murodov Sh Valiyev X va boshqalar -“Suv resurslaridan mukammal foydalalanish va muhofaza qilish T.Aloqacli” 2007 y 160 b
12. Otaboev Sh. Nabiyeu M-“Inson va biosfera” T. O‘qituvchi 1993 y
13. Suv ta'minotida tashqi tarmoq va inshootlar” T. O‘zbekiston loyiha 1908 y 110 b
14. Paxtabod tumani suv ho’jaligi tarmoqlari boshqarmasi Msoboti 2012 y
15. Paxtabod tumani “Tabiatni muhofaza qilish ko’mitasi” 2008-2012 y
16. Internet ma’lumotlari. www.Google.